ONLINE JOURNAL
E-ISSN:3060-5490

INSTITUTE OF UZBEK NATIONAL
MUSICAL ART NAMED AFTER YUNUS RAJABI

Milliy Madaniyat Jurnali - Журнал Национальной Культуры

Journal of national CULTURE

Received: 15.12.2025 · Accepted: 19.02.2026 · Published: 31.03.2026
DOI: https://doi.org/10.64681/w50s5v27

ilmiy uslubiy jurnali – научно-методический журнал – research and methodological journal

Institute of Uzbek National Musical Art named after Yunus Rajabi
JOURNAL OF NATIONAL CULTURE, 1(2), 2026
www.jnculture.uz

Benazir bastakor va ustoz

(An Outstanding Composer and Mentor)

Rifatilla Qosimov

Department of Maqom Instrumental Performance,
The Institute of Uzbek National Musical Art named after Yunus Rajabi,
100001, Mustaqillik, 1.
Uzbekistan/Tashkent
ORCID: https://orcid.org/0009-0000-8874-7560
E-mail: kasimovrifatilla@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek milliy musiqa san’atining rivojiga ulkan hissa qo‘shgan bastakor, sozanda va pedagog Sulton Xayitboyevning hayoti hamda ijodiy faoliyati keng yoritilgan. Muallif o‘zbek xalqining boy musiqa merosi va uning ustoz-shogird an’analari asosida shakllanish jarayoniga alohida e’tibor qaratadi. XX asrda faoliyat yuritgan mashhur san’atkorlar qatorida Sulton Xayitboyevning tutgan o‘rni, uning milliy musiqa rivojiga qo‘shgan hissasi misollar orqali ochib beriladi. Maqolada bastakorning bolalik davri, musiqa ta’limi, ijrochilik faoliyati va keyinchalik pedagog sifatida olib borgan ishlari batafsil bayon etilgan. Shuningdek, uning qo‘shiqchilik, musiqali drama, simfonik va kamer asarlar yaratishdagi yutuqlari tahlil qilinadi. Xayitboyev ijodining o‘ziga xos jihatlari – xalqchillik, lirizm va mazmundorlik asosiy mezon sifatida ko‘rsatib o‘tiladi. Uning asarlari turli ijrochilar tomonidan keng ommaga yetkazilgani va hozirgi kungacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganligi ta’kidlanadi. Mazkur maqola milliy musiqa merosini o‘rganish va uni yosh avlodga yetkazishda muhim ilmiy-manba sifatida xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Sulton Xayitboyev, o‘zbek musiqasi, bastakor, sozanda, musiqali drama, milliy meros, ijrochilik san’ati, ustoz-shogird an’anasi, qo‘shiq, kompozitorlik.

Abstract

This article provides a comprehensive overview of the life and creative work of Sultan Khayitboyev, a prominent Uzbek composer, musician, and educator who made a significant contribution to the development of national music. The study highlights the richness of Uzbek musical heritage and emphasizes the importance of the master-apprentice tradition in preserving and transmitting this legacy. The author examines Khayitboyev’s role among the notable 20th-century artists and analyzes his impact on Uzbek musical culture. The article traces his artistic journey from early

musical education to his professional career as a performer, composer, and teacher. Special attention is given to his achievements in various genres, including songs, musical dramas, symphonic and chamber works. The distinctive features of his творчество—such as lyricism, emotional depth, and strong connection to folk traditions—are thoroughly discussed. It is also noted that his compositions were widely performed by renowned singers and continue to hold cultural significance today. The article serves as an important academic resource for studying and promoting Uzbek musical heritage among future generations.

Keywords: Sultan Khayitboyev, Uzbek music, composer, musician, musical drama, national heritage, performing arts, master-apprentice tradition, song, composition.

Аннотация

В данной статье подробно освещаются жизнь и творческая деятельность выдающегося узбекского композитора, музыканта и педагога Султана Хаитбоева. Особое внимание уделяется богатому музыкальному наследию узбекского народа и его передаче через традиции «устоз-шогирд». Автор рассматривает вклад композитора в развитие национальной музыкальной культуры XX века, анализируя его произведения и педагогическую деятельность. В статье последовательно раскрываются этапы становления Султана Хаитбоева — от начального музыкального образования до профессиональной карьеры и преподавательской работы. Также рассматриваются его достижения в жанрах песни, музыкальной драмы, симфонической и камерной музыки. Подчеркиваются характерные особенности его творчества: народность, лиризм и глубокое содержание. Отмечается, что произведения композитора широко исполнялись известными артистами и до сих пор сохраняют свою актуальность. Данная работа представляет собой важный источник для изучения узбекского музыкального искусства и его популяризации среди молодого поколения.

Ключевые слова: Султан Хаитбоев, узбекская музыка, композитор, музыкант, музыкальная драма, национальное наследие, исполнительское искусство, традиция устоз-шогирд, песня, композитор.

Ma’lumki, o‘zbek xalqi boy tarixga, madaniyat va musiqa merosiga ega. Tarix zarvaraqlariga nazar tashlar ekanmiz, albatta, har bir davrda milliy musiqa ijrochiligi san’ati bobida o‘zidan o‘chmas iz qoldirgan ulug‘ namoyandalar yashab o‘tganliklariga amin bo‘lamiz.

Ayniqsa, XX asrda tabarruk zaminimizda yashab ijod etgan, xalqimizning ruhiy va ma’naviy hayotiga katta hissa qo‘shgan zabardast sozanda-yu hofizlar,

bastakorlar qoldirgan ulkan merosni o‘rganish va unga sadoqat bilan yondashish hozirgi avlod vakillarining muqaddas vazifalaridan biri bo‘lmog‘i zarur [1. b.29].

O‘zbek xalqining boy musiqa merosini o‘rganish va uni targ‘ib qilish ishlari san’atimizning jonkuyar tashabbuskorlari, mohir ijrochilari zimmasida bo‘lishi maqsadga muvofiq. Chunki bizning davrimizga yetib kelgan ulkan musiqiy merosning ustozdan shogirdga bevosita o‘tishida tabarruk zotlar ko‘prik vazifasini o‘tash bilan birgalikda, o‘zlarining ijodlari bilan ham na’muna bo‘lganlar.

Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Matyusuf Xarratov, Matpano Xudoyberganov, Madrahim Yoqubov (Sheroziy), Yunus Rajabiy, To‘xtasin Jalilov, Safo Mug‘anniy, Hojixon Boltayev, Faxriddin Sodiqov, Komiljon Jabborov, G‘anijon Toshmatov, Komiljon Otaniyozov, Matniyoz Yusupov, Abdusharif Otajonov, [5. b.56] maqolamiz qahramoni Sulton Xayitboyev va boshqalar ustozdan shogirdga o‘tib kelayotgan asriy an’analarni davom ettirib, yangi mazmun, yangi g‘oyalar bilan payvand qila olgan tabarruk zotlardir.

O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, sozanda, bastakor Sulton Xayitboyev ijodiy, ijrochilik, muallimlik va jamoatchilik faoliyati bilan XX asr o‘zbek musiqasi tarixida yorqin iz qoldirdi. U o‘zbek mumtoz musiqasi an’analarini izchil davom ettirib, o‘ziga xos uslubda qo‘shiq, ashula, kuy hamda boshda shakl va janrlarda birqator musiqiy asarlar yaratib, xalqimiz hurmat-e’tiboriga sazovor bo‘ldi. Bastakorning yaratgan musiqa na’munalari jo‘shqinligi, lirik shiradorligi, mazmundorligi va xalqchilligi bilan tinglovchiga huzur baxsh etadi.



Sulton Xayitboyev 1926-yil, 5-may kuni Xorazm viloyatining Yangiariq tumanida tavallud topgan. Har bir iste’dodli yoshlar qatori uning bolalik va o‘smirlik davri maktab va tuman musiqa to‘garaklardagi saboqlardan boshlandi. Musiqa to‘garagida u g‘ijjak va doyra cholg‘ularini o‘rgandi. Yosh iste’dodli Sulton Yangiariq tumanidagi (Kolxoz teatri) qoshida tashkil etilgan ansamblga sozanda sifatida ishga taklif etildi. Keyinchalik, yigitlik burchini ado etish maqsadida harbiy xizmatga chaqirilganda ham “Harbiy havaskorlar ansambli”da ijrochilik faoliyatini davom ettirdi. Ansambl ijro repertuaridan joy olgan bir qator o‘zbek xalq kuylari bilan birga atoqli kompozitor va bastakorlar Yunus Rajabiy, To‘xtasin Jalilov, Nabijon Hasanov, Tolibjon Sodiqov, Manas Leviyev, Saidjon Kalonov, Mamadaziz Niyozov, Sulaymon Yudakov kabi ijodkorlarning musiqiy asarlari mavjud edi.

Sulton Xayitboyev hayotida harbiy xizmat (1945-1949) davri uning taqdirida unutilmas onlar bo‘lib qoldi. U, kelgusida yuqorida nomlari tilga olingan mashhur kompozitor va bastakorlar singari ijod sohibi bo‘lishlikni orzu qilar edi. Buning uchun maxsus musiqa o‘quv yurtlariga kirib, har tomonlama puxta bilim olish

kerakligini angladi. Shu bois Sulton Xayitboyev harbiy xizmatni ado etgandan so‘ng 1949-yilda Xamza Hakimzoda Niyoziy nomidagi Toshkent Davlat musiqa bilim yurtining g‘ijjak cholg‘u mutaxassisligi va musiqa nazariyasi bo‘limiga o‘qishga kirdi. Ushbu dargohda u musiqa nazariyasi va kompozitorlik mutaxassisligi bo‘yicha Sobir Boboyev va Boris Giyenkolardan saboq oldi.

1952-yilda O‘zbekiston xalq artisti Yunus Rajabiy O‘zbekiston davlat radiosi qoshidagi “O‘zbek xalq cholg‘u ansamli” ga Sulton Xayitboyevni sozanda sifatida ishga taklif qildi. Ushbu dargohda u Buxoro, Xorazm va Farg‘ona-Toshkent an’anaviy musiqa merosida mavjud na’munalar o‘rgandi. Ana shunday ijodiy muhit yosh sozanda va bastakor uchun katta maktab bo‘ldi [3. b.158].

Sulton Xayitboyev 1955-1960-yillari Toshkent Davlat konservatoriyasining kompozitorlik fakultetida professor B.B.Nadejdin sinfida saboq oldi. O‘qishni muvaffaqiyatli yakunlaganidan so‘ng shu yili O‘zbekiston Respublikasi maorif vazirligi huzuridagi pedagogika ilmiy tekshirish institutida musiqa va badiiy san’at bo‘limi mudiri lavozimiga tayinlandi. 1962-yildan esa Muhiddin Qori Yoqubov nomidagi O‘zbek davlat filarmoniyasining musiqa bo‘limiga mudirlik qildi. 1965-1968 yillarda Toshkent Davlat konservatoriyasining aspiranturasida professor A.F.Kozlovskiy rahbarligida tahsil oldi. 1968-yildan konservatoriyada muallimlik qildi. 1975-yildan umrining oxiriga qadar Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat madaniyat institutida cholg‘ulashtirish va partitura o‘qish kafedrasini boshqardi.

Bastakor Sulton Xayitboyev ijodida asosan qo‘shiq va musiqali drama janrlari ustun turadi. U ijodining 40 yildan ortiq davrida qo‘shiqchilik san’atiga e‘tiborini qaratdi. Mumtoz va zamondosh shoirlar g‘azal hamda sherlariga turli mavzularda juda ko‘p ashula, qo‘shiq va yallalar yaratdi. Shunisi diqqatga sazovorki, kompozitor qo‘shiq va ashulalarini o‘z davrining mashhur xonandalari hamda nufuzli ijrochi jamoalari ijro etganlar. Ushbu musiqiy asarlar, oldindan yakka xonanda va ijrochi jamoalarning buyurtmalari asosida yaratilganligi diqqatga sazovorlidir. Masalan, O‘zbekiston xalq artisti Kommuna Ismoilova ijrosida “Ey sohibi dil...” (Turob To‘la she’ri), “So‘zim aytaman” (xalq so‘zi), “Talpinur dil” (Zohidjon Obidov she’ri), O‘zbekiston xalq hofizi Quvondiq Iskandarov ijrosida “Esingdami” (Mirtemir she’ri), O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq artisti Olmaxon Xayitova ijrosida “O‘zbekiston gullari” (A.Bobojon she’ri), “Hayol” (E’tibor Oxunova she’ri), “O‘tmasmikan” (Nilufar she’ri), “Armon bo‘lmasun” (Xusayn Bayqaro g‘azali), O‘zbekiston va Tojikiston xalq artisti Matluba Dadaboyeva ijrosida “O‘zbekiston so‘zlagay”, “Hilolim” (Normurod Nazrullayev she’rlari), “O‘zbekistonim” (Jumaniyoz Jabborov she’ri), O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Hadya Yusupova ijrosida “Gullasin Vatan” (Barot Isroil she’ri), “O‘rgilay”, “Yor bo‘yingdan” (Anvar Isroilov she’ri), O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Ra’no Sharipova ijrosida “Tong yulduzimisan” (Po‘lat Mo‘min she’ri), “Ozor yetmasa” (Nilufar she’ri), O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Maqsad Yunusova ijrosida “Oh, agar ko‘rsam yana” (Xusayn Bayqaro g‘azali), “Ovozingni eshitganda”

(T.Qahhor she'ri), "Sog'indimku" (Erkin Samandarov she'ri), O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Mavluda Oynaqulova ijrosida "Uyalaman" (Ra'no Uzoqova she'ri), "Istar" (Erkin Samandarov she'ri) va boshqa xonandalar ijrosida konsert dasturlarida, radio efir to'lqinlarida jaranglab kelmoqda.

Bulardan tashqari Muhiddin Qori Yoqubov nomidagi O'zbek davlat filarmoniyasi qoshidagi "Lazgi" ashula va raqs ansambli hamda o'zbek xalq cholg'ulari orkestrining ijro dasturidan kompozitor ijodiga mansub bir talay qo'shiqlar joy olgan [4. b.35].

Sulton Xayitboyev 1991-1999-yillar davomida Erkin Samandarov she'rlari bilan "Sog'inish", "Yulduz bilan", "Istar", "Umid g'unchasi", "Ketma, muhabbat", Barot Boyqobilov she'ri bilan "Biz Temur avlodimiz", Ra'no Uzoqova she'ri bilan "Vafo qilmadi", Husayn Bayqaro g'azallari bilan "Armon bo'lmasun", "Ravshan aylagin", "Oh, agar ko'rsam agar", "Jamolingdan ko'zim ravshan" kabi qo'shiq va kuylar yaratdi. Kompozitor ijodiga doir qo'shiqlar 1985-yili G'afur G'ulom nomli nashriyotda "O'zbekiston so'zlagay" nomi bilan maxsus to'plamda chop etilgan.

Kompozitor Sulton Xayitboyev ijodini musiqali dramalarsiz tasavvur qilish qiyin. Bu janrda ham u barakali ijod qilganligini e'tirof etish mumkin.

1962-yili Sulton Xayitboyev bastakor Komiljon Jabborov bilan hamkorlikda "Nodira" (X.Razzoqov pyesasi) musiqali dramasini yaratdi. Ushbu asar Andijon musiqali drama teatrida saxna yuzini ko'rgandan boshlab kompozitor ijodiy faoliyatida katta burilish bo'ldi. U musiqali drama janriga yanada mehr qo'ydi va yillar davomida 14 ta musiqali drama, 2 ta musiqali komediya va 3 ta televizion spektaklga musiqa bastaladi. Uning asarlari Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrida va viloyat teatrlarida sahnalashtirildi. Masalan, Ogahiy nomidagi Xorazm viloyat teatrida 1964-yili qo'yilgan "So'nggi xon" (A.Bobojon va M.Muhammedovlar pyesasi) musiqali dramasi, 1972-yili "Qudalar" nomli (O'tkir Rashid pyesasi) musiqali komediyasi, 1973-yili "Mauzerli qiz" (Yu.Yusupov pyesasi), 1985-yili "Ahmad bilan oqbilak" (T.Mirza pyesasi), Bobur nomidagi Andijon viloyat teatrida, 1969-yilda "Saltanat shubhada" (Sh.Sa'dullo pyesasi), 1971-yili Farg'ona viloyat teatrida "Yaylov tongi" (Tamkin pyesasi), 1973-yili "Zavqiy" (Q.Mahkamov pyesasi), Alisher Navoiy nomida Namangan viloyat teatrida 1976-yili "Muhabbat yodgori" (M.Nazarov pyesasi), 1979-yili "Farzand deb" (O'tkir Rashid pyesasi), Mulla To'ychi Toshmuxamedov nomidagi Qashqadaryo viloyat teatrida 1978-yili "Charog'bonlar" (M.Nazarov pyesasi) qo'yilgan musiqali dramalarni, Yunus Rajabiy nomidagi Sirdaryo viloyat teatrida 1990-yili "Ikki oshiq bir bo'lsa" (T.Qahhor pyesasi) musiqali komediyani tomoshabinlarga havola qilgan edi.

Shu bilan birgalikda Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrida 1966-yili "Bag'ritosh" (H.Umarov pyesasi), 1975-yili "Turkman qizi" (Tamkin pyesasi), 1994-yili "Har kimga vafo qilsa" (Xaydar Muhammad pyesasi), bastakor A.Xoshimov va kompozitor M.Otajonovlar hamkorligida yozilgan "Bashorat" (Erkin Samandarov pyesasi) musiqali dramalari (1995 y.) sahna yuzini ko'rdi.

Sulton Xayitboyev 1967-yili “Uvaysiy” (T.Qosimova pyesasi), 1971-yili “Dilistonim mening”, 1984-yili “Mashrab” (Alp Jamol pyesasi), telespektakllariga ham musiqa bastaladi.

Ma’lumki yevropa klassik musiqasida konsert, simfoniya, syuita kabi janrlar mavjud. O‘zbek kompozitorlari ham mazkur janrlarda barakali ijod na’munalari yaratishga muyassar bo‘lganlar. Shu nuqtai nazardan kompozitor Sulton Xayitboyev yaratgan musiqiy asarlar ham bundan mustasno emas. U kishi ijodiga mansub skripka va simfonik orkestr uchun konsert, simfoniya, simfonik syuita, rubob va o‘zbek xalq cholg‘ulari uchun “Konsertli lirik pyesa”, o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri uchun uchta syuita, qashqar rubobi va fortepiano uchun “Ballada”, fortepiano uchun prelyudiya, variatsiya, fuga kabi asarlar musiqa maktablar o‘quv dasturlariga kiritilgan. Shular bilan birgalikda o‘zbek mumtoz ashulalaridan “Feruz I, II”ni, “Aliqambar”, “Tobon aylasa” va “Keldim” nomli asarlar yakka xonanda va fortepiano uchun moslashtirilgan. Bolalar uchun “Turnalar”, “Orzu”, “O‘qi a’lo-bilim ol”, “Kimning xati chiroyli”, “Xo‘roz va xo‘rozqand” kabi qo‘shiqlari yakka ijrochi va bolalar xor jamoalarining repertuar dasturlaridan joy olgan. Sulton Xayitboyev 1960-1964-yillarda T. Husainov bilan hamkorlikda umumta’lim maktablarining 5-6-sinflari uchun “Musiqa” darsligini yaratdi va nashrdan chiqardi [2. b.67].

Kamtarin inson, mehribon ustoz, hassos, benazir bastakor-kompozitor, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, professor Sulton Xayitboyev ijodi avloddan-avlodga uzluksiz o‘tib boraveradi. U kishidan qolgan ijod na’munalari esa allaqachonlar san’atsevar xalqimizning manaviy-madaniy hayotida o‘z aksini namoyon etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva O. Bastakorlik san’ati. — T.: Samo nashr, 2024.
2. Begmatov S. Bastakorlar ijodi. — T.: Niso poligraf, 2017.
3. Jabborov A. O‘zbekiston kompozitorlari, bastakorlari va musiqashunoslari. — T.: Musiqa, 2018.
4. Qosimov R. An’anaviy ijrochilik. — T.: Fan, 2007.
5. Rajabov I. Maqomlar. — T.: SAN’AT, 2006.

References

1. Abdullayeva, O. *Bastakorlik san’ati* [The Art of Composition]. Tashkent: Samo nashr, 2024. (in Uzbek)
2. Begmatov, S. *Bastakorlar ijodi* [Creative Work of Composers]. Tashkent: Niso poligraf, 2017. (in Uzbek)
3. Jabborov, A. *O‘zbekiston kompozitorlari, bastakorlari va musiqashunoslari* [Composers, Songwriters and Musicologists of Uzbekistan]. Tashkent: Musiqa, 2018. (in Uzbek)
4. Qosimov, R. *An’anaviy ijrochilik* [Traditional Performance Practice]. Tashkent: Fan, 2007. (in Uzbek)
5. Rajabov, I. *Maqomlar* [Maqoms]. Tashkent: SAN’AT, 2006. (in Uzbek)